

CHO‘LPON SHE‘RLARIDA UCHRAYDIGAN BA‘ZI SO‘ZLARNING TALAFFUZ VARIANTLARI

Hodiyeva Muhayyo

Qarshi DU, Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2- kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Cho‘lpon she‘rlaridagi so‘zlarning fonetik, morfologik, leksik variantlarda uchraydigan turlarini topdik. Cho‘lpon she‘riyatida xalq og‘zaki nutqidan kelib chiqqan talaffuz variantlari ishlatilishi kuzatiladi. Bu shoirning xalq hayotiga yaqin ekanligini va milliylikka e‘tiborini ko‘rsatadi. Masalan, “bo‘lay” o‘rniga “bo‘l” yoki “aylan” o‘rniga “aylanib” variantlari uchrab turadi.

Kalit so‘zlar. Talaffuz varianti, fonetik, morfologik, leksik, xalq nutqi, adabiy til, badiiy ifoda, dublet, termin, variantdoshlik, lisoniy variantdoshlik.

Аннотация. В этой статье мы обнаружили типы слов, встречающихся в фонетических, морфологических и лексических вариантах в стихах Чолпона. В поэзии Чулпана наблюдается использование вариантов произношения, происходящих из устной народной речи. Это показывает близость поэта к жизни народа и его внимание к национальности. Например, вместо "булай" встречаются варианты "бол" или вместо "айлан" - "айланиб."

Ключевые слова. Вариант произношения, фонетический, морфологический, лексический, народная речь, литературный язык, художественное выражение, дублет, термин, вариантность, языковая вариантность.

Annotation. In this article, we found the types of words found in Cholpon's poems in phonetic, morphological, and lexical variants. In Cholpon's poetry, variants of pronunciation derived from folk oral speech are observed. This shows the poet's closeness to the life of the people and his attention to nationality. For example, instead of "bo'lay," there are variants "bo'l" or instead of "aylan," "aylanib."

Keywords. Variant of pronunciation, phonetic, morphological, lexical, colloquial, literary language, artistic expression, doublet, term, variants, linguistic variants.

Talaffuz variantlarining she‘riy matndagi o‘rni matnni yanada jonli va tabiiy qiladi. Shoir xalq nutqi va adabiy til o‘rtasidagi uyg‘unlikni topib, talaffuz xususiyatlarini badiiy ifoda vositasi sifatida ishlatgan.

Variantdoshlik terminshunoslikda ma‘qul topilmasa-da, ammo bu lingvistik hodisani cheklab o‘tolmaydi. Variantdoshlik XVII asrda tilshunoslikka olib kirilgan bo‘lib, bu hodisa yuzasidan bugungi kunga qadar bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Variantdoshlikning ilmiy-nazariy asoslari xususida V.V. Vinogradov, A.I. Smirnitskiy, O.S. Axmanova kabi olimlar fikr mulohazalar bildirgan. Lisoniy variantdoshlikka xos belgi, xususiyatlarni tahlil va talqin qilish o‘zbek tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. O‘tgan asrning 60–70-yillarida O‘. Usmanova va A. Boboyeva kabi tilshunos olimalar o‘zbek tilidagi variantdosh so‘zlarning turlari, ularning sinonimlardan farqli jihatlari, shuningdek, me‘yorga keltirish masalasi xususida fikr, mulohazalarni bildirgan. O‘. Usmanova variantdoshlikni izohlash uchun leksik dublet terminini qo‘llaydi. Dubletlarni fonetik va morfologik shakllarga ajratadi. A. Boboyeva esa “... mazmun va mohiyati jihatidan aynan bir xil va bir biriga yaqin ma‘nodagi nutqiy vositalarning ikki va undan ortiq shaklda ifodalanish variativlik” degan fikr bilan izohlaydi. Tilshunos R.Shukurov variant bu bir ma‘noli so‘zning ikki lisoniy shaklda mavjud bo‘lishidir deya ta’riflaydi. Keltirilgan izohlar, fikr, mulohazalardan aytishimiz mumkinki, variantdoshlik, ayniqsa terminologiyada o‘rganilishi dolzarb bo‘lgan masaladir. Tilshunos olim D. Xudoyberganova sohalarni anglatuvchi terminlarning o‘zi variantlilik asosida ishlatilib kelinayotganligini, ayrim terminlarning rus tilida bir necha variantda qo‘llanishi ularning o‘zbek tilida ham shunday qo‘llanishga sabab bo‘layotganligini, ayrim tadqiqotlarda kalka usuli bilan termin o‘zlashtirilganda o‘zbek tilidagi so‘zlardan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan holda bunga e’tibor qilmaslik ko‘zga tashlanayotganini izohlab, bu holatda bir to‘xtamga kelish kerakligini ta’kidlaydi. Garchi bu fikrlar zamonaviy tilshunoslik terminlariga nisbatan aytilgan bo‘lsa-da, barcha sohaga doir terminlar qo‘llanilishida shu jarayonlarning guvohi bo‘lmoqdamiz. Tibbiyot terminologiyasi yuzasidan tadqiqot olib borgan tilshunos A. Saidnomanov terminologiyaga bag‘ishlangan ishlarda ham variantdoshlikka jiddiy e’tibor qilinmagani, terminlarni tartibga solish masalasida faqat sinonimlik yoki dubletlik tahlil qilinganligini, bu hodisalarni alohida tadqiqotlar doirasida o‘rganilishi va chegaralar ajratilishi kerakligini aytib o‘tadi. Keltirilgan

barcha asosli tafsilotlardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, terminologiyada variantdoshlik nomuqobil hisoblansa-da, bu lingvistik hodisani chetlab o‘tolmaydi. Sohalarga doir terminlar o‘rtasida variantdoshlikni tahlil va tadqiq qilish muhim leksik jarayon hisoblanadi. Jumladan, davlat boshqaruvi terminologiyasining hozirgi holatini tadqiq qilish, sohaga doir terminlar bilan bog‘liq muammolarning lingvistik yechimini topish, taraqqiyot omillarini belgilash tilshunoslikning muhim masalalaridan biri sanaladi. Tishunoslikda variantdoshlikni tasniflash masalasida O.S. Axmanova uchga: morfologik, fonetik va so‘zlashuvdagi guruhlariga, R.P. Rogojnikova fonetik va morfologik variantlarga guruhlaydi. A. Saidnomanov ham tibbiyot terminologiyasiga doir variant terminlarni ikkiga fonetik va morfologik variantdosh terminlarga ajratadi. Tilshunos, terminolog olim A.Madvaliyev variantdoshlikni dublet deb atab, etimologik dubletlarni o‘zbekcha so‘zlar dubletligi hamda o‘zbekcha va baynalmilal so‘zlar dubletligi shaklida tasniflaydi.

Keltirilgan fikrlar va qilingan tadqiqot natijalarini o‘rganib, mulohaza qilgan holda Cho‘lpon she‘rlari leksikasini ham quyidagi morfologik variantdoshlarga ajratib tahlil qilamiz.

dir>dur shaklida :

“Ma’rifat harom**dur** sartga”, deb
Og‘zingdan qon keldi,yig‘lading...

Qishloqda faqirlar kutad**dur**-
Kechada,kunduzda,saharda!

“Ko‘klam ruhi” she‘rlar to‘plami,Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi,2019,”O‘ZBEGIM” she‘ri ,3-bet

man>men shaklida :

Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘ray**men**.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: “Men uni tushda ko‘ra**men**”,

O‘sha asar, “Go‘zal” she‘ri,4-bet:

ga>g‘a shaklida :

Ko‘zimni olamen oy chiqqan yoq**g‘a**,

Boshlaymen oydan-da seni so‘rmoqg‘a.

O‘sha asar, “Go‘zal” she‘ri, 4-bet

gach>kach shaklida :

Ul ket**kach**, kun chiqar yorug‘lik sochib,

Undan-da so‘raymen sening to‘g‘ringda,

O‘sha asar, “Go‘zal” she‘ri, 4-bet

ning>im shaklida:

Men**im** o‘yimmi qora? Yoki yurt ko‘kida bulut,

Quyuq bulut to‘dasi qonli yosh to‘kib yig‘lar?

Men**im** bu xasta dilimni yana nechun tig‘lar?

O‘sha asar, “Og‘riganda” she‘ri, 44-bet

sa>a shaklida:

Menim-da ko‘ksima yoqmoqmi istar ul bir o‘t?

O‘sha asar, “Og‘riganda” she‘ri, 44-bet

Hijronni boshima yoyma,

Ey tundek sochi qora qiz!..

O‘sha asar, “Tun” she‘ri, 71-bet

sin>sun shaklida :

– Bu yotishning so‘ngi, so‘ngi kels**sun**!

Yozilmaganmi bu tunlar so‘nginda tong otmoq?

O‘sha asar, “Og‘riganda” she‘ri, 44-bet

Labingda mangu yopiq qolmas**sun** u birgina so‘z.

Go‘zal chechakdek ochils**sun** so‘nik va so‘lg‘in yuz

O‘sha asar, “Qizarish” she‘ri, 43-bet

dilar>lar shaklida :

Aytal**arkim**, sovuq, g‘amli qora qish

O‘tib ketib, kelmish chiroyli bahor.

Aytalar, dalada yer beti tamom

Ko‘m-ko‘k duxobadan ko‘ylaklar kiymish.

O‘sha asar, “Sharq qizi” she‘ri, 7-bet

-ar emish>mish shaklida :

Aytalar, dalada yer beti tamom

Ko‘m-ko‘k duxobadan ko‘ylaklar kiym**ish**.

Xo‘rozlar chaqirib, yuzin ochsa tong,

Saboning labini oshiqlar **emmish...**

O‘sha asar, “Sharq qizi” she’ri, 7-bet

-ga>a shaklida :

Hijronni boshima yoyma,

Ey tunde sochi qora qiz

O‘sha asar, “Tun” she’ri, 71-bet

Bir tomchi to‘kilgan yosh uchun shuncha so‘libsan,

Aldamchi fano ko‘zlara tentakcha kulibsan.

O‘sha asar, “Oy qo‘ynida” she’ri, 90-bet

-ar>ur shaklida:

Har yerdan qancha tovushlar

Devlardek na’ra solurlar

Tegramda nayza – qilichlar

Jonimga hamla qilurlar...

O‘sha asar, “Tun” she’ri, 71-bet

Ekan >kan shaklida :

Salqin suvlar tog‘dan quyi tusharkan,

Tomchilari yomg‘ir kabi ucharkan .

O‘sha asar , “Buzilgan o‘lkaga” she’ri, 29-bet

-moq>mak shaklida :

Menim uchun yorug‘ dunyo rohati-

To‘rt devor ichinda ko‘zlar o‘ynatmak.

Menim uchun ulug‘ shodlik soati-

Telba ko‘kragimda o‘ylar uyg‘otmak.

O‘sha asar, “Sharq qizi” she’ri, 7-bet

-san>sen shaklida :

Nega jimsen, nega javob bermaysen,

O‘sha asar, “Yorug‘ yulduzga” she’ri, 13-bet

-gan>kan shaklida:

Ko‘z oldimda oqib yotkan Zarafshon,

O‘sha asar, “Zarafshon” she’ri, 15-bet

Ko‘z yoshim birlan o‘skan chechak bor.

O‘sha asar, “Kleopatra uyqusi”, 22-bet

-di>dir shaklida :

Yosh boladay erkalay**dir**, o‘ynay**dir**,
Hovliqma ham bo‘lsa o‘zi, ko‘p chaqqon,
Uncha- muncha to‘siqlarni qo‘ymay**dir**.

O‘sha asar, “Zarafshon” she‘ri, 15-bet

-gusi>g‘usi shaklida:

Halokat bo‘lg‘**usin** bilmay qulochni katta otdim-ku.
O‘sha asar, “Qalandar ishq” she‘ri, 16-bet

Yangi kunda yasalg**usi** to‘yini
Yoz kabi turli gulga ko‘p boyning
Dedilar: “Bo‘lg‘**usi** chechak oyini”,

O‘sha asar, “Yana qor” she‘ri, 38-bet

-moqqa>makka shaklida:

Qabring topib ko‘z yoshimni to‘k**makka**.
Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda
Oq kallalik qora devni so‘k**makka** .

O‘sha asar, “Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasi” she‘ri, 18-bet

-gin>in shaklida :

Maqtamoqqa bir kirishgach maqtay**in**,
To‘xtasam, so‘nggi tinimda to‘xtay**in**.

O‘sha asar, Parcha 19-bet

-gan>g‘an shaklida :

Men yangiliklar o‘lkasidan **sinmag‘an**
Bir qanotni taqib olib qo‘zg‘alдим.
Shu yo‘limda yaproqlari so‘l**mag‘an**

O‘sha asar, “Men qochmadim” she‘ri, 24-bet

-gan>g‘on shaklida :

Ko‘m-ko‘k, go‘zal o‘tloqlaring **bosilg‘on**,
Ustlarida na poda bor, na yilqi,
Podachilar qaysi dorga **osilg‘on**?

O‘sha asar , “Buzilgan o‘lkaga” she‘ri, 29-bet

-guvchi>g‘uvchi>quvchi shaklida:

Ot mingan, qushlar kabi uch**g**uvchi,
Erkin-erkin havolarni quch**g**‘uvchi,
Ot chopganda, uchar qushni tut**q**uvchi.

O‘sha asar, “Buzilgan o‘lkaga” she’ri, 29-bet
-gich>g‘ich shaklida :

Kechaning jon **olg‘ich** qorong‘iligi

O‘sha asar, “Amalning o‘limi” she’ri, 31-bet
-guchi>g‘uchi shaklida :

Go‘daklarni **yastag‘uchi** oyoqlari ostida.

Yur, mazlumlar to‘fonining o‘ch **olg‘uchi** sellari!

O‘sha asar, “To‘fon” she’ri, 39-bet
-kir>kur shaklida :

Yo‘qmidir o‘**tkur** qilich kesmakka yovlarning qo‘lin,

O‘sha asar, “Go‘zal Farg‘ona” she’ri, 51-bet
-gay>g‘ay shaklida :

Hovli- joylarni balki **sotg‘aymiz**,
So‘ngra bor-yo‘g‘imizni sarf qilib arzga ,
Qozining yo‘llarida **yotg‘aymiz ...**

O‘sha asar, “Alamzadalar” she’ri, 66-bet
-gil>g‘il shaklida :

Qayg‘ungni qayg‘umg‘a qo‘**shg‘il**,
Binafsha, sening-chun ko‘kragim - erk yeri,
Bu yerdan ko‘klarga **uchg‘il**!

O‘sha asar, “Binafsha” she’ri, 68-bet
-mi>mu shaklida :

Qari Sharq, sen-da qo‘zg‘alursen**mu**?

Yana yillarcha tebratur**mu** seni?

O‘sha asar, “Yana o‘t” she’ri, 89-bet
-edi so‘zi erdi shaklida :

Senki kulmak bilan vujudimni
Ba’zida sevgiga ko‘mar **erding**.

So‘ngra birdan yana cho‘kar **erding**

Eski, behuda, keng xayollaringga.

O‘sha asar, “Kulmak istading” she’ri, 41-bet

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Cho‘lpon she’rlarida turli xil shakldagi morfologik variantlar uchraydi. Shoir bunday variantlarni turfa holatlardan kelib chiqib qo‘llagan. Birinchidan, 20-asrning 20-30-yillarida qo‘llangan tilga xos xususiyatlar, ikkinchidan, she’riy ohangdorlikni ta’minlash maqsadida, uchinchidan esa fors va arab tillarining ta’siri natijasida yuzaga chiqqan jarayonlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида вариантдорлик //“Ўзбек тили ва адабиёти”, 1979, №6.
2. . Саидноманов А. Соҳавий терминлар вариантдорлиги ва уларни минимумга келтириш масаласи //Ўзбек тили ва адабиёти, 2023. №3. –Б. 121.
3. Усмонова Ў. Дублетлар ҳақида баъзи мулоҳазалар// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1968, №1. –Б. 23-25;1 О‘sha manba. –Б. 58.
4. Xudoyberganova D. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi terminlarining taraqqiyot omillari // O‘zbek tiliva adabiyoti. 2023, №4. – В.14-15.
5. Шукуров Р. Сўзнинг морфологик вариантлари. – Тошкент. “Фан”, 1990, - Б. 6.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Б. 660.
7. Abdulhamid Cho‘lpon.Go‘zal Turkiston.Toshkent. “Ma’naviyat”,1997.
8. Cho‘lpon.Ko‘klam ruhi.Toshkent.Yoshlar nashriyot uyi, 2019.